

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Pedagogika fakulteti BT va STI yo'nalishi III's's' guruh talabasi

Begmatova Sohibaning

**FARG'ONA VILOYATI OYKONIMLARINING LINGVISTIK TAHLILI
mavzusida yozgan**

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

**BTM kafedrasi
D.Nizomiddinova**

o'qituvchisi

Qo'qon – 2014

REJA

- 1. Farg'ona viloyati oykonimlarining leksik-semantik xususiyatlari.**
- 2. Oykonimlar va ularning eng muhim belgilari.**
- 3. Hidrooykonimlar, Orooykonimlar, Fitooykonimlar.**
- 4. Antropooykonimlar, Etnooykonimlar, Iqtisodiy turmushni aks ettiruvchi oykonimlar.**
- 5. Xulosa.**

FARG'ONA VILOYATI OYKONIMLARINING LEKSIK - SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Oykonimlar va ularning eng muhim belgilari

Oykonimlar Farg'ona viloyati joy nomlari tizimida salmoqli o'rinni egallaydi. Oykonimlarga aholi yashash maskanlari nomlari kiradi. Oykonimlarning o'ziga xos muhim xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatmoq mumkin.

Aholi maskanlarining nomlari tarkibida qo'llanuvchi qishloq, ovul, qo'rg'on, qo'rg'oncha, guzar, mahalla, ko'cha indikatorlari oykonimlarni xarakterlovchi muhim belgilardan sanaladi. Bu xil so'zlar geografik nomning ikkinchi qismida qatnashadi. Ularni tubandagi guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir: 1) qishloq so'zi bilan kelgan oykonimlar: Do'ngqishloq, G'aniqishloq, Avg'onqishloq, Dashtqishloq (O'zbekiston tumani), Sultonqishloq, Hayitqishloq, Eshonqishloq, Eskiqliq (Furqat tumani), Oyqishloq, Xo'jaqliq, Tolqliq, Uzunqliq (Beshariq tumani), Oyimqliq, Gulqliq, CHo'lqliq, O'rtaqliq, Mozorqliq (Buvayda tumani), Qumqliq, Boyqliq, SHo'rqliq (Dang'ara tumani), CHangqliq, Jiyclaq, Qirg'izqliq, Tojikliq (Uchko'priq tumani), Tepaqliq, YUqoriqliq, Toshqliq, Qashqarqliq, Pastqliq, CHuqurqliq, Belqliq (Toshloq tumani), Kattaqliq, So'fiqliq, SHaqqarqliq, Qo'qonqliq (Quva tumani), Qizilqliq, Qorong'iqqliq (Qo'shtepa tumani), CHigitqliq, Paxtaqliq (Bag'dod tumani), YAngiqliq (YOzyovon tumani) va boshqalar; 2) ovul so'zi ishtirok etgan oykonimlar: Beshovul, Tumanovul, Qozoqovul (Beshariq tumani), To'xtaovul (O'zbekiston tumani) kabilar; 3) tarkibida qo'rg'on so'zi bo'lgan oykonimlar: YAngiqo'rg'on, Eshonqo'rg'on, Oqqo'rg'on, Oltinqo'rg'on (Buvayda tumani), Po'latqo'rg'on (Dang'ara tumani), O'rtaqo'rg'on, Buzuqqo'rg'on (O'zbekiston tumani), Tuproqqo'rg'on (Toshloq tumani), Boyqo'rg'on, Uchqo'rg'on (Quva tumani), Jarqo'rg'on (Oltiariq tumani),

Tepaqo'rg'on (Uchko'prik tumani), Qozoqqo'rg'on (Beshariq tumani) singarilar; 4) qo'rg'oncha so'zi orqali yasalgan oykonimlar: Kattaqo'rg'oncha, Kichikqo'rg'oncha, Qiyaliqo'rg'oncha (Dang'ara tumani), Arabqo'rg'oncha (Uchko'prik tumani), Qirg'izqo'rg'oncha, Hasanqo'rg'oncha (Buvayda tumani), YAngiqo'rg'oncha (Rishton tumani), Dashtqo'rg'oncha, Qahatqo'rg'oncha, Begvachchaqo'rg'oncha (Bag'dod tumani) va boshqalar; 5) guzar so'zi ishtirok etgan oykonimlar: Qaymoqliguzar, Nonvoylikguzar, Isfaraguzar, Toshkentliguzar (Qo'qon shahri), Axshakguzar (Toshloq tumani), Bachqirguzar (Buvayda tumani), YAngiguzar (Uchko'prik tumani), Eshonguzar (Qo'shtepa tumani) kabilar; 6) mahalla so'zi vositasida yasalgan oykonimlar: Qashqarmahalla (YOzyovon tumani), Qirg'izmahalla, Rizomahalla (Farg'ona tumani), Tojikmahalla (Quva tumani), Buloqmahalla (Bag'dod tumani), SHo'rmahalla (O'zbekiston tumani), Jarmahalla, Dashtmahalla (Beshariq tumani), Bog'mahalla (Uchko'prik tumani), Eshonmahalla (Quva tumani), Soymahalla (O'zbekiston tumani), Quyimahalla (Uchko'prik tumani), Qummahalla (Dang'ara tumani), Tepamahalla (Buvayda tumani) singarilar; 7) tarkibida ko'cha so'zi qatnashgan oykonimlar: Kattako'cha (Toshloq tumani), Boyko'cha, Jarko'cha (Farg'ona tumani), Bog'ko'cha (Bag'dod tumani), YAngiko'cha (Beshariq tumani), Tegirmonko'cha (Bag'dod tumani), CHekko'cha, CHuqurko'cha (Farg'ona tumani), CHimboyko'cha (Quva tumani) va shuning singarilar.

Ma'lum hudud tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar oykonimlarda yaxshi saqlanib qoladi. Aholining o'tmishdagi etnik tarkibi – qaysi urug', qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmush sharoiti — qanday kasb-hunar bilan shug'ullanganligini ifodalovchi oykonimlar fikrimizga dalil bo'la oladi. Nayman, Jaloyir, Do'rmon, Mang'it, Kenagas, Xitoy, Qipchoq, Qalmoq, Minglar, YUzlar, Qirqlar, Eshonqishloq, Xo'jaqishloq, Eshonto'pi, CHinnigaron, Pichoqchi, Nosgar, Qog'ozgor, Misgarlik, Egarchilik, Yo'rmado'z, Ko'nchilik, O'qchi singarilar shunday nomlar jumlasiga kiradi. Bundan farqli ravishda toponimlarning boshqa

turlarida, chunonchi, gidronimlar va oronimlarda etnik nomlardan, kasb-hunarni bildiruvchi so'zlardan yasalgan toponimlar nihoyatda kam uchraydi.

Suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli oykonimlarning ayrimlari ariq, buloq, ko'l, hovuz nomlari bilan atalgan. Aniqrog'i gidroobyektni ifodalovchi atoqli otlar aholi maskanlari nomi sifatida qo'llanila boshlangan. Qumariq, Toshariq, Jiyaariq, YAngiariq, Oqariq, Oydinbuloq, Sovurbuloq, Kandabuloq, SHaytonko'l, Oydinko'l, Oqko'l, Qorako'l, Damko'l, Achchiqko'l, Qorasuv, To'qqizbuloq, Damariq singari qishloq nomlari buning yorqin dalilidir.

Bir guruh oykonimlarning atalishiga shu hududdagi tepa nomlari (oronimlar) asos bo'lib xizmat qilgan. Qiziltepa, Oqtepa, CHangaltepa, SHo'rtepa, Qumtepa, To'qaytepa, Qoratepa, Sobirtepa, Surxtepa, Zindontepa, Qorovultepa, Begimjontepa, Qo'shtepa, Qamishtepa kabilarni bu xil oykonimlarga misol qilib keltirish mumkin.

Oykonimlarning ma'lum bir qismi shaxs ismlari, titullar, mansab nomlari bilan yuritilgan. Obyekt (joy) ning biron kishiga mansubligi, tegishli ekanligi bunday nomlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Jumaboycheki, Avazboy, YUsofqo'rg'oncha, Akbarobod, CHek SHarif, Xudoyorxon, Mallaxon, Usta Bozor, Qurbonmergan, Dodho, Devonbegi, G'aznachi, Sarbotir, SHeralimingboshi, Mulla Zoir, Dasturxonchi, Qozikalon, Matqulobod singarilar shular jumlasidandir. Ta'kidlash lozimki, toponimlarning boshqa turlari, chunonchi, gidronimlarda kishi ismlari asosida yaratilgan suvliklar nomi ancha kam uchraydi, oronimlarda esa yo'q hisobi.

Tekshirilayotgan hududdagi ayrim yirik, katta qishloqlar tarixan o'z ichida mahallalar, ko'chalar, to'plarga bo'lingan. Bu kichik hududiy bo'linmalarning har biri ma'lum nom bilan atalgan. Masalan, Rishton tumanidagi To'da qishlog'ida Tegirmonboshi, Beklar, Kattako'cha, Tuyachi, Kattatol, Ariqbo'yi mahallalari; Beshariq tumanidagi Dehqonto'da qishlog'ida Qumbosdi, O'rtamahalla, Moshmahalla, Mang'it, Ovul, So'zoq, Qo'rg'oncha mahallalari; Uchko'prik

tumanidagi Qurbonqashqar qishlog'ida Objuvoz, CHorvoq, YAngibog', Tegirmon, O'rtayo'l, YUqorimahalla, Pastmahalla, Soybo'yi mahallalari; O'zbekiston tumanidagi Nursux qishlog'ida esa Moshmahalla, Soymahalla, YUqorimahalla, Qaqir, Buloqboshi, Namozgoh nomi bilan ataluvchi mahallalar mavjud.

Ayrim oykonimlar (ayniqsa, yirik qishloq nomlari) ko'pincha ikki ma'noda – tor va keng ma'noda ishlatiladi. Tor ma'noda qo'llanganda o'sha qishloqning o'zi va markazini, keng ma'noda esa shu qishloq atrofidagi barcha qishloqlarni ham ifodalab keladi. CHunonchi, Nursux oykonimi shu yerda joylashgan qadimgi Nursux qishlog'i va uning markazini ifodalash bilan birga atrofdagi SHo'rqishloq, Qo'rg'oncha, Buzuqqo'rg'on, Kenagas, Zinasha, Oxta, Uchbilak, Otaliq qishloqlarini ham bildiradi.

O'rganilayotgan hududda ayrim oykonimlarning variant holatda uchrashi ham qayd qilindi. Bunga ko'ra ayrim mahalla nomlarining ikkinchi qismida ko'cha va mahalla, past va tuman so'zlari, birinchi qismida esa yuqori va tepa so'zlari biri ikkinchisi o'rnida qo'llaniladi: Moshmahalla—Moshko'cha, YUqoriko'cha—YUqorimahalla, Dashtmahalla – Dashtko'cha, Soymahalla – Soyko'cha, Pastmahalla – Tumanmahalla, Yuqorimahalla – Tepamahalla, Pastmahalla – Quyimahalla, YUqorimahalla – Balandmahalla kabilar. Karnaychimahalla—Karnaychito'p, Birinchi Xitoy – Katta Xitoy, Ikkinchi Xitoy – Kichik Xitoy oykonimlari ham variant nomlar jumlasiga kiradi.

Oykonimlarning ma'nolari ko'p hollarda o'z-o'zidan bilinib, anglashilib turadi: YAkkatut, Qo'shtepa, Jarqishloq, Oqjar, Damariq, Jiyakchilik, Egarchilik, Taroqchilik, Qumqishloq, Eshonmahalla, CHuqurqishloq, Qo'shchinor, To'ptol, Qatortarak, Jarko'cha kabi. Ayrim oykonimlarning ma'nolarini tarixiy-etimologik tahlil qilish yo'li bilan aniqlash mumkin. Oqyozi—oq cho'l, oq dasht; Navkat—yangi qishloq; Jo'ydam—dam ariq; Kandabuloq—qazilgan buloq, chuqur buloq; Kunjak—burchak, chet joydagi mahalla; Obisiyo—qora suv, yer ostidan chiqadigan zax, sizot suvlar oqadigan ariq; Tagiosiyo—tegirmon tagi, tegirmon pasti singari. Ba'zi oykonimlarning ma'nosini aniqlash qiyin: CHo'rindi, Log'on, Loyson, Nursux,

Rishton, Dang'ara, Arsif, Gulpiyon, Bo'rbaliq, Katput, Avval, Ultarma, Mo'yon, Valik, Povulg'on, Axshak, Jangketmon, Sadkak, Xolmiyon, Salang, Bedarak, Umbara, Pandigon, CHo'ng'ara, CHuburg'on va boshqalar.

Vaqtlar o'tishi bilan ayrim aholi maskanlarining yiriklashuvi, ulardagi aholi sonining o'sishi tufayli qishloqlar ikkiga bo'linib qolgan. Natijada o'sha qishloqni ifodalovchi oykonim oldidan yangi sifatlovchi so'zlar orttirilgan. Bu so'zlar obyektning hajmini, joylashish o'rnini, paydo bo'lgan vaqtini va boshqa xususiyatlarini aks ettirgan. Bularga Katta Aravon — Kichik Aravon, Katta Minglar — Kichik Minglar, Katta Oqtepa — Kichik Oqtepa, Katta Kenagas — Kichik Kenagas, YUqori O'qchi — Pastki O'qchi, Tepa Jaloyir — Pastki Jaloyir, YUqori Xo'jahasan — Pastki Xo'jahasan, Balandki YAngiqo'rg'on — Pastki YAngiqo'rg'on, Beshkapa bolo — Beshkapa poyon, YUqori Qo'ng'irot — Tuman Qo'ng'irot, YAngi Arab — Eski Arab oykonimlari misol bo'la oladi.

Oykonimlar nom asosidagi so'zning ma'no va mazmuniga ko'ra bir necha guruhga bo'lib o'rganiladi. Binobarin, oykonimlarni leksik-semantik jihatdan tahlil etganda ularni qanday so'zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash muhim ahamiyatga egadir. Darhaqiqat, oykonimlarning nomlanishi turlicha kechadi. Ularning ba'zilar aholining etnik tarkibini ifodalovchi urug', qabila, xalq nomlari bilan (Mang'it, Qo'ng'irot, Qipchoq, Qozoqovul, Tojikqishloq) atalsa, ayrimlari kishi ismlari va laqablari vositasida (Rahmatullo, Sulaymon, G'aniqishloq, Hamraobod, Alimergan, Karimdevona) nom olgan bo'ladi. Ayrim oykonimlar o'simlik va hayvonot olamiga aloqador so'zlar (CHinor, YAKkatut, To'ptol, YUlg'unzor, Kaptarxona, Laylakuya), shuningdek, kasb-hunarga oid atamalar (Degrezlik, Nosgar, Taroqchilik, CHinnisoz, Pillakash) bilan yuritiladi. Aholi maskanlari ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarixiy kategoriya bo'lib, ularning nomlanish jihatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi.

Oykonimlarning geografik va lingvistik nuqtai nazardan o'rganishda ularni guruh-guruhlarga bo'lib tasniflash usuli keng tarqalgan. Aholi maskanlarini asosan ikki yirik guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar.
2. Iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar.

Tabiiy-geografik oykonimlar o'z navbatida suv bilan bog'liq (gidrooykonimlar), relyefni aks ettiruvchi (orooykonimlar), o'simlik dunyosi nomidan olingan (fitooykonimlar) kabi turlarga bo'linsa, iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar o'z navbatida kishilar ismidan (antropooykonimlar), urug'-qabilalar nomidan (etnooykonimlar) va iqtisodiy turmushni aks ettiruvchi oykonimlarga bo'linadi. Oykonimlarni chuqurroq tahlil etish maqsadida yana kichik guruhlarga bo'lish mumkin. Quyida shular xususida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Gidrooykonimlar

Farg'ona viloyati toponimiyasi tizimida gidrooykonimlar ma'lum bir o'rinni ishg'ol etadi. Suv obyektlarining atoqli otlari—gidronimlar bilan atalgan aholi yashash maskanlari nomlari gidrooykonimlar deb aytiladi. Ta'kidlash lozimki, suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. Ko'plab aholi soy, ariq, buloq, suv bo'ylariga, atroflariga joylashib istiqomat qilgan. SHu bois suv obyektlarini bildiruvchi atoqli otlar sekin-asta ular yashagan joylar, maskanlarni ham ifoda eta boshlagan. Toshariq, Qorasuv, Oqko'l, Damariq, YAngiariq singari.

Gidrooykonimlarni qanday va qaysi tipdagi suvliklar nomi bilan atalganligiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ariq nomiga nisbatan berilgan oykonimlar: Damariq (Buvayda, Quva, Oltiariq tumanlari), Qumariq (Uchko'prik, YOzyovon tumanlari), YAngiariq (So'x, Qo'shtepa, Farg'ona, Oltiariq tumanlari), Belariq (Oltiariq tumani), Zarariq (Rishton tumani), Qizilariq, Xotinariq (Qo'shtepa tumani), Qo'lariq (Toshloq

tumani), Suvliariq (YOzyovon tumani), Dashtariq, Oqariq, Jiydaariq, Qayirmaariq (Farg'ona tumani) kabilar.

2. Soy nomlariga nisbat berilgan oykonimlar: YAngisoy (Farg'ona shahri), Quvasoy (viloyatdagi shahar nomi), G'alchasoy, Qiyalisoy, Oqtepasoy (Qo'qon shahri), Soyshildir (Dang'ara tumani) va boshqalar.

3. Ko'l nomiga nisbat berilgan oykonimlar: Damko'l (Farg'ona tumani), Oydinko'l (Buvayda tumani), Qorako'l (Uchko'prik, Bag'dod tumanlari), SHaytonko'l (Beshariq tumani), Ko'l Elash (O'zbekiston tumani) singarilar.

4. Buloq nomiga nisbat berilgan oykonimlar: Zarbuloq, Oqbuloq (Qo'qon shahri), Sovurbuloq (Farg'ona tumani), Kandabuloq (Quva tumani), Oydinbuloq, Qaynarbuloq (O'zbekiston tumani) kabilar.

5. Quduq, hovuz, kechuv nomlari bilan atalgan oykonimlar: Oqquduq (Quva tumani), Uzunhovuz (Marg'ilon shahri), Toshhovuz (Qo'shtepa tumani), Kattahovuz (Buvayda tumani) va boshqalar.

Farg'ona viloyatidagi gidrooykonimlar nom uchun asos bo'lgan so'zning ma'no va mazmuniga ko'ra quyidagi semantik guruhlarga ajratiladi:

1. Urug', qabila, qavm, toifa nomlari (etnonimlar) bilan yuritilgan gidrooykonimlar. Bularni etnogidrooykonimlar deyish mumkin. Misollar: Qipchoqariq (Qo'qon shahri, Toshloq tumani), Boltako'l (Qo'shtepa, Furqat tumanlari), Naymansoy (O'zbekiston tumani), Xo'jaariq (Toshloq tumani), G'alchasoy (Qo'qon shahri) kabilar.

2. Suvning maza-ta'mi, rang xususiyatiga ko'ra nomlangan gidrooykonimlar: Achchiqko'l (Qo'qon shahri), SHirinsuv (Bag'dod tumani), Qizilariq (Qo'shtepa tumani), Qorasuv (Farg'ona tumani), Oqko'l (Dang'ara tumani), SHo'rsuv (O'zbekiston tumani), Qorako'l (Bag'dod, Uchko'prik tumanlari), Qorasoy (YOzyovon tumani), Qoraariq (Qo'shtepa tumani) va shuning singarilar.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, gidronimlar tarkibida qo'llangan oq so'zi doimo oqib turadigan, tog' muzliklaridan keladigan, qor suvlari bilan

to'yinadigan, o'z tabiiy o'zanida oqadigan, yozda qurimaydigan, rangi oq tusda bo'lgan, ichishga yaroqli suvga nisbatan ishlatiladi. Yer osti va sizot suvlaridan to'yinadigan, sekin oqqanligi uchun tiniq, qoramtir tusda ko'rinadigan, tabiiy o'zanida oqmaydigan suvga nisbatan esa qora so'zi ishlatiladi.

3. Suv obyektining son-sanog'i, miqdoriga ko'ra atalgan gidrooykonimlar: Qo'shariq (Toshloq tumani, Qo'qon shahri), Uchariq (Rishton tumani), Ucholish (Toshloq tumani), To'qqizbuloq (Qo'qon shahri), Qo'shkechik (Quva tumani), Beshariq, Oltiariq (viloyatdagi tuman nomlari), Beshbuloq (Beshariq tumani), Qirqhovuz (Marg'ilon shahri) kabilar.

4. Suv obyektining hajmiga, shakl tuzilishiga, paydo bo'lgan vaqtiga, oqimdagi yo'nalishiga ko'ra nomlangan gidrooykonimlar: Kattahovuz (Toshloq tumani), Uzunhovuz (Marg'ilon shahri), YAngiariq (Farg'ona, Qo'shtepa, So'x tumanlari), Damariq (Buvayda, Farg'ona tumanlari), Damko'l (Farg'ona tumani), Jo'ydam, YAngisoy (Farg'ona shahri), Ulkansoy (Qo'qon shahri) kabilar.

5. Yer qatlamining ustki tuzilishi, tuproq tarkibiga, joyning relyefiga ko'ra nomlangan gidrooykonimlar: Toshariq (Beshariq tumani), Qumariq (Uchko'prik, Toshloq, YOzyovon tumanlari), Dashtariq (Oltiariq tumani), SHarshara (Farg'ona shahri), SHaldirama (Marg'ilon shahri) singarilar.

O'zni kelganda shuni aytish zarurki, ayrim aholi maskanlari (qishloq, mahalla, ko'chalar) ma'lum bir suv obyekti (buloq, soy, ariq, ko'l, kanal)ning qayeriga, qaysi tomoniga joylashganligiga ko'ra nom olgan. Tabiiyki, bu xil toponimlar ham obyektning gidronimik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Buloqboshi (Rishton, Beshariq tumanlari, Qo'qon shahri), Soybo'yi (Farg'ona, Quva, YOzyovon, Toshloq, Qo'shtepa tumanlari, Quvasoy shahri), Ariqboshi (Beshariq tumani), Ariqbo'yi (Rishton, Qo'shtepa, Uchko'prik, Dang'ara tumanlari, Marg'ilon shahri), Ko'lbo'yi (Oltiariq tumani), Hovuzbo'yi (Rishton tumani), Suvboshi, Soyyoni (Toshloq tumani), Kanalbo'yi (Marg'ilon shahri, Uchko'prik, YOzyovon, Rishton tumanlari), Soylabi (Beshariq tumani), Kanaltagi

(Quva tumani), Orolbo'yi (Marg'ilon shahri), Ko'llabi (Oltiariq tumani), Kartanbo'yi (Uchko'prik tumani) va boshqalar.

Aksariyat hollarda gidronimlar oykonimlarga o'tganda nom tarkibida grammatik va fonetik jihatdan hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi. Suv obyektini ifodalagan nom qanday ko'rinishda bo'lsa, qishloq yoki mahallaga nom qilib ko'chirilganda ham shundayligicha qolavyeradi. Masalan, Damariq (ariq nomi) – Damariq (qishloq nomi), Oydinbuloq (buloq nomi) – Oydinbuloq (qishloq nomi), Oqsuv (jilg'a nomi) – Oqsuv (mahalla nomi), Qiyalisoy (soy nomi) – Qiyalisoy (ko'cha nomi) kabi.

Gidronimlar aholi turar joylariga nom bo'lib o'tganida ular o'rtasida ma'no va vazifa jihatidan ba'zi bir ayirmaliklar yuz beradi. Bunda ikki holatni hisobga olmoq kerak. Agar gidronim ifodalagan suv objekti hozirda mavjud bo'lsa, u holda bu nom gidronim sifatida tilda keng tarqalgan bo'ladi, uning oykonimik nomni ifodalashi ikkinchi darajali hisoblanadi. Masalan, Qaynarbuloq, Oydinbuloq deyilganda darhol buloq nomi tushuniladi, chunki mazkur suv obyektlari bugungi kunda bor. Qaynarbuloq, Oydinbuloq atoqli otlarning qishloq nomlarini ifodalashligi esa ikkilamchi hodisa sanaladi. Bu nomlar tilga olinganda ham gidronim, ham oykonim tushuniladi.

Gidronim ifodalagan suv objekti hozirda mavjud bo'lmasligi, u ma'lum bir davr o'tishi bilan yo'q bo'lib ketgan bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda nomning gidronimik ma'nosi emas, oykonimik ma'nosi yashashda davom etadi. CHunonchi, Qo'qon guruhi tumanlaridagi Qorako'l, Kattahovuz, Toshariq, Beshariq, Boltako'l, Damariq, Qumariq, Achchiqko'l singari joy nomlari aholi o'rtasida oykonim sifatida ishlatiladi. Bu nomlar hatto XX asrning birinchi choragida tuzilgan aholi maskanlarining ro'yxatlarida ham qishloq nomlari tarzida qayd etib o'tilgan. Binobarin, yuqoridagi atamalar paydo bo'lishi jihatidan suv obyektlarining nomlari bo'lsa ham, hozirda bu suv obyektlari tamomila yo'q bo'lib ketgan. SHu sababli mazkur atoqli otlar keyinchalik qishloq nomi sifatidagina

saqlanib qolgan. Ko'chirilgan nomlardagi bu xususiyat maxsus tekshirish ishlari orqali aniqlanadi.

Orooykonimlar

Yer relyefining tuzilishi, sathi bilan bog'liq bo'lgan bunday oykonimlar geomorfologik oykonimlar yoki orooykonimlar deb ataladi. Oronimlarga tog', adir, qir va tepaliklar emas, balki relyefning salbiy shakllari - vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o'yiqlik, shuningdek, tekislik, past - tekisliklar va qumliklar ham kiradi. Vaqt o'tishi bilan obyektning relyefi o'zgarishi mumkin, biroq o'sha relyefni ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi. CHunonchi, "tepa", "jar" ma'nosini bildirgan oykonimlarning ayrimlari hozirgi vaqtda o'sha joy relyef xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin.

Relyef shakllaridan aholi maskanlariga eng ko'p qo'yiladigan nom tepa so'zi bilan bog'liq. Qadimda ajdodlarimiz ko'proq mudofaa maqsadlarini ko'zlab, o'z yashash manzilgohlarini tepalar yaqinida tashkil etganlar. Mazkur holat dushman xavfini ancha uzoqdan bilish yoki boshqalarni bu haqda ogohlantirish imkonini bergan. Farg'ona viloyatida tepa so'zi qatnashgan qishloqlar sonining o'ttiztadan ortishi fikrimizning dalilidir. Ushbu aholi manzilgohlariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Aziztepa, Arabtepa, Arziktepa, Go'rtepa, Zindontepa, Kitkontepa, Oqtepa, Simtepa, Sobirtepa, Sochtepa, Surxtepa, Tepajaloyer, Tepaqo'rg'on, Tepalik, Tepatagi, Tillatepa, Toshloqtepa, Toshtepa, Uchtepa, CHilontepa, SHahartepa, SHo'rtepa, Qiziltepa, Qilovtepa, Qoratepa, Qorovultepa, Qumtepa, Qo'shtepa kabi.

Viloyatda jar so'zi qatnashgan joy nomlari ko'proq qishloqning yaqin atrofidagi salbiy relyef shakli – "jar – o'yilgan chuqur soylik" borligidan darak beradi. Jar so'zi orqali Anorjar, Jamanjar, Jarariq, Jarboshi, Jarmachit, Jarqishloq, Jarqo'rg'on, Oqjar, Tagijar, Qiziljar singari qishloqlar nomlangan. SHuningdek, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida qayd etilganidek, yor

so'zi ham jar, o'yilgan yer ma'nosini beradi. Adabiyotlarda bu so'z Namangan guruhi shevalarida hozir ham shu ma'noda ishlatilishi ta'kidlanadi. Namangan viloyatining Uychi tumanida YOrtepa, YOrqo'rg'on, YOrtagi, YOrko'cha, Keskanyor, YAngiqo'rg'on, CHust tumanida YOrqishloq, Andijon viloyatida Oqyor, Kuyganyor, Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanida YOrmozor, YOrdon deb ataluvchi qishloqlar bor. Bu toponimlarda yor so'zi jar ma'nosi bilan geografik nomlar tarkibida qatnashgan va joyning relyef xususiyatlarini o'zida aks ettirgan.

Viloyatda relyef shaklini bildiruvchi Adirbolo, Pakanaadir, CHordara, Do'ngsaroy, Belariq, Kamar, Qapchug'ay yoki chuqur so'zi bilan CHuqurqishloq, CHuqurko'cha kabi toponimlar yaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Geomorfologik oykonimlarga relyef shaklidan tashqari joyning landshaft tuzilishini bildiruvchi joy nomlari ham kiradi. Bunday oykonimlar tarkibida dasht so'zi keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Odatda dasht – “obod qilinmagan, suvsiz cho'l”ga nisbatan qo'llanadigan geografik tyermindir. Tabiiy geografiyada dasht tabiat zonasi deb cho'lga nisbatan shimolda joylashgan, o'simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan boyroq bo'lgan hududga aytiladi. Farg'ona viloyatida dasht so'zi bilan Dasht, Dashtobod, Dasht mahalla, Dasht Pandigon, Dasht Tegirmon, Dasht CHO'lpon, Dasht Hasan, O'qchidasht, G'anidasht kabi qishloq va mahallalar nomlari yuritiladi.

Navbatdagi geomorfologik oykonimlar qatoriga tosh so'zi bilan boshlanadigan joy nomlarini kiritish mumkin. Bu oykonimlar tarkibidagi tosh so'zi— qattiq tog' jinslarining umumiy nomi yoki alohida turgan qoya sifatida qo'llanilgan bo'lishi mumkin. Viloyatda Tosharab, Toshariq, Toshobod, Toshloq, Toshloqtepa, Toshmasjid, Toshtepa, Toshoxir, Toshhovuz, Toshqishloq, Toshqo'rg'on, Polvontosh, Ko'ktosh kabi mahalla va qishloq nomlari qayd etilgan bo'lib, ular tarkibidagi tosh so'zi toponim yasovchi sifatida ishlatilgan.

Qadimgi geografik terminlardan yana biri- yozi bo'lib, turkiy va eski o'zbek tilida cho'l, dasht, tekislikni bildirgan. Hozir iste'moldan chiqib ketgan, lekin O'zbekiston hududidagi ayrim toponimlar tarkibida saqlanib qolgan. Bunga

Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi Oqyozi, Sariyozi nomli oykonimlarni misol qilish mumkin. Oqyozi — oq cho'l, oq dasht; Sariyozi — sariq dasht, sariq cho'l ma'nosini bildiradi. Markaziy Farg'onada joylashgan YOzyovon tumanining nomi yozi va yobon so'zlaridan tuzilgan. Bunday yobon so'zi ham cho'l degan ma'noni beradi. Kelib chiqishiga ko'ra YOziyobon tarzida shakllangan bu nomda vaqt o'tish bilan turli fonetik o'zgarishlar bo'lgan, dastlab i tovushi tushib qolgan, so'ng b tovushi v tovushi bilan almashib YOzyovon shaklini olgan. YOzyovon aynan "cho'l, cho'li biyobon, tekis cho'l" demakdir.

Joyning geomorfologik xususiyatlaridan relyefning tuzilishi, sathi, tog', adir, qir va tepaliklar, vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, tekislik, past - tekisliklar va qumliklar bilan bog'liq bo'lgan bunday oykonimlar uzoq vaqt o'zgarmasdan saqlanib qolishi bilan ham ahamiyatlidir.

Fitooykononimlar

Toponimlarning yana bir guruhini o'simlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan joy nomlari tashkil etadi. O'simlik va daraxt nomlari bilan atalgan aholi maskanlari nomi-fitooykonimlar (yunoncha fitos-o'simlik demakdir) ma'lum hududdagi o'simliklar dunyosining muhim xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu turdagi joy nomlarining vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida qayd etilgan Oqterak, Olayig'och, Qorayig'och singari toponimlar bu fikrning yorqin dalilidir. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Bodomchashma, Bog'ibinafsha, Bog'ichinor, Jiydalik, Kandibodom, Olmaliq, CHinoron singari joy nomlari uchraydiki, bularning atalishi ham bevosita o'simliklar olamiga aloqadordir.

O'simliklar insoniyatning moddiy tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kishilarning hayoti va xo'jalik faoliyatida muhim rol o'ynagan. Tabiiyki, ular inson uchun xom-ashyo manbai bo'lgan, chorva uchun mo'l-ko'l ozuqa bazasi hisoblangan. SHuning uchun ham kishilar turli xil o'simlik nomlarini joy nomi

tarzida qo'llay boshlaganlar. Bunday nomlar kishilar hayotida oriyentir (mo'ljal) bo'lib ham xizmat qilgan.

Farg'ona viloyati aholi maskanlari nomlari tizimidagi fitooykononimlarni daraxt yoki o'simliklarning turiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

I. Mevali daraxt nomlari bilan yuritilgan oykonimlar tarkibida quyidagi so'zlar ishtirok etgan:

1) jiyda so'zi: Jiydali, Jiydayo'li (Buvayda tumani), Jiydalik, Kattajiyda (Oltiariq tumani), Jiydaqishloq (Beshariq, Uchko'prik tumanlari), Jiydalibog' (Qo'qon shahri), Qorajiyda (Beshariq, Qo'shtepa tumanlari), Jiydaariq (Farg'ona tumani) kabilar.

2) tut so'zi: YAKkatut (Beshariq, Uchko'prik, O'zbekiston, Toshloq tumanlari), Mingtut (O'zbekiston tumani), Syertut (Oltiariq tumani), Tutqator (Farg'ona, So'x tumanlari), Uchtut (Farg'ona tumani), Tuttagi (Marg'ilon shahri) singarilar.

3) yong'oq, uzum, tok, bodom, o'rik, anor, olma, anjir, behi so'zlari: YOng'oqlik (Buvayda tumani), Uzumzor (Farg'ona, Buvayda tumanlari, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari), Uzumbog' (Rishton tumani), Tokzor (Marg'ilon va Qo'qon shaharlari), Bodomzor (Rishton, Farg'ona, Bag'dod, Oltiariq tumanlari, Marg'ilon shahri), O'rikzor (Farg'ona, Oltiariq tumanlari, Qo'qon shahri), Anorzor (Marg'ilon shahri), Anorbog' (So'x tumani), Olmazor (Farg'ona, Oltiariq, Quva tumanlari), Anjirzor (Marg'ilon shahri), Behizor (Qo'shtepa tumani, Quvasoy, Marg'ilon shaharlari) va boshqalar.

II. Mevasiz o'simliklar nomi bilan atalgan oykonimlar tubandagi so'zlar orqali shakllangan.

1. Tol so'zi bilan: Tolqishloq (Beshariq, Buvayda tumanlari), Qatortol (Beshariq, YOzyovon tumanlari), To'ptol (O'zbekiston, Quva tumanlari), Uchtol (Quva tumani), Beshtol (Toshloq tumani), Kattatol (Rishton, Uchko'prik tumanlari), YAKkatol (Buvayda tumani), Tolmozor (Quva, O'zbekiston tumanlari),

Mozortol (Bag'dod tumani), Tolko'cha (Oltiariq tumani), Tolzor (Qo'qon shahri), Majnuntol (Buvayda tumani, Qo'qon shahri), Sartol (Beshariq tumani) kabilar.

2. Terak so'zi orqali: Terakmozor (Farg'ona shahri), Qatortarak (Farg'ona tumani), Juftterak (Marg'ilon shahri), Terakzor (Qo'qon shahri), Beshtarak (Buvayda tumani), Teraktagi (Qo'shtepa, Toshloq, Quva, Rishton tumanlari, Marg'ilon shahri), Teraklibog' (Qo'qon shahri) va boshqalar.

3. Qayrag'och so'zi vositasida: Qayrag'och (Uchko'prik, Quva, YOzyovon, Rishton tumanlari), Nayzaqayrag'och (Toshloq tumani), Mullaqayrag'och (Qo'shtepa tumani), Qayrag'ochzor (Marg'ilon shahri) singarilar.

4. CHinor so'zi bilan: CHinor (O'zbekiston tumani, Marg'ilon shahri), CHorchinor (Marg'ilon, Qo'qon shaharlari), Qo'shchinor (Bag'dod tumani, Qo'qon shahri), CHinortagi (Oltiariq tumani), CHinormahalla (Bag'dod tumani) kabilar.

III. O't nomlari bilan ifodalangan oykonimlar ko'p emas. Dang'ara tumanidagi G'umayli, Toshloq tumanidagi SHuvoqzor qishloqlari nomlari shular jumlasiga kiradi.

YUqorida qayd etilganlardan tashqari, Farg'ona viloyatida yana CHilon (Quva tumani), YUlg'unzor (Uchko'prik tumani), Maydayulg'un (Dang'ara tumani), Archa, YUqori Archa, Pastki Archa, Limonzor (Farg'ona tumani), Qamishtepa (Qo'shtepa tumani), CHorbog'to'rang'i (Beshariq tumani), Do'lanazor (Marg'ilon shahri), Lolazor, Sada (Toshloq tumani) fitooykonimlari uchraydiki, ular turli xil o'simliklar nomlari bilan ifoda qilingandir. Oltiariq tumanidagi Xoriston, So'x tumanidagi CHumoqcha, Sebeda fitooykonimlarining o'zagi tojikcha xor (tikon), chumoq (yong'oq), bed (tol) bo'lib, "tikonzor", "yong'oqcha, kichik yong'oq", "qo'sh tol" ma'nolarini ifoda qiladi.

Fitooykonimlar o'simlik yoki daraxtning ma'lum bir joyda ko'p yoki kamligidan darak beradi. O'simlikning ko'p ekanligi ma'nosini bildiruvchi oykonimlar tarkibida "ming", "to'p", "qator" singari sonlar va miqdorni bildiruvchi ayrim so'zlar mavjud bo'ladi: Mingtut, To'ptol, Qatortol, Qatortarak

singari. SHuningdek, grammatik jihatdan –li, -lik, –zor qo'shimchalari orqali shakllangan oykonimlar ham o'simlik turining ma'lum yerda boshqa obyektlarga nisbatan ko'proq uchrashligini bildiradi: Jiydali, Jiydalik, YOng'oqlik, YUlg'unzor, Uzumzor, Terakzor, Do'lanazor, SHuvoqzor kabi.

O'simlikning kamligi yoki sanoqli ekanligi ma'nosini bildiruvchi oykonimlar tarkibida "yakka", "qo'sh", "uch", "chor" (to'rt) so'zlari ishtirok etadi: YAKkatol, YAKkatut, Qo'shchinor, Uchtol, Uchtut, CHorchinor va boshqalar.

Bundan tashqari, hech qanday qo'shimchasiz (affikssiz) o'zak holida qo'llanuvchi CHinor, Qayrag'och, Sada, Archa, CHilon singari fitooykonimlar ham joy nomi uchun asos bo'lgan so'zda ifodalangan o'simlik turining o'sha hududda ozligi, kam miqdorda ekanligi, lekin eng xarakterli belgi vazifasini o'tashligini bildiradi.

Antropooykonimlar

Antropooykonimlar deb kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari va familiyalaridan yasalgan joy nomlariga aytiladi. Viloyatda ko'cha, mahalla va qishloqlarga nom berishda kishilarning ismlarini qo'yish yoki toponimik komissiyaga taqdim etish hollari ko'p uchrab turadi. SHuni hisobga olib mazkur mavzuda ikkita fikrni aytib qo'yishni lozim topdik.

Birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, Islom dini odatlariga ko'ra joylarga nom berishda kishilarning ismlaridan foydalanish u qadar quvvatlanmagan. SHarqda yashagan ulug' allomalarning ismlarini dunyo xaritasida uchramasligi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Keyinchalik so'lim go'shalarga aziz-avliyolar, islom dini namoyandalarining ismlari qo'yila boshladi. Bunday nom bir tomondan o'sha maskanga ziyoratchilar oqimini ko'paytirib, iqtisodiy jihatdan naf ko'rilishiga sabab bo'lsa, boshqa tomondan shu maskan tabiatini ekologik jihatdan saqlashga yordam beruvchi diniy-huquqiy himoya vositasi sifatida ishlatilgan.

Ikkinchidan, respublikaning amaldagi qonunlari bo'yicha obyektlarga

kishilarning ismini berishga alohida hollarda ruxsat beriladi. Mahallalar, ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, bog'lar va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, fizik-jo'g'rofiy, geologik, tabiati muhofaza etiladigan va boshqa obyektlarga davlat, jamoat arboblarning, siyosiy arboblarning, Vatan himoyachilari, mehnat qahramonlari, fan, madaniyat arboblari va boshqa xizmat ko'rsatgan odamlarning nomini berish faqat ularning vafotidan so'ng amalga oshirilishi mumkin ekanligi belgilab qo'yilgan.

YUqoridagilarni e'tiborga olib mahallalar, ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, bog'lar va aholi maskanlarining boshqa tarkibiy qismlariga nom berishda imkon boricha joyning iqtisodiy va tabiiy-tarixiy xususiyatlarini o'zida aks ettirgan nomlarni qo'yish maqsadga muvofiq ekanligini unutmaslik zarur.

Antropooykonimlarning vujudga kelishi jamiyatda sinflarning paydo bo'lishi, quldorlik tuzumi davridan boshlangan. Xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizm davriga kelib hududning asosiy farqlovchi belgisi sifatida uning kimga qarashli ekanligi, egasi olingan. Natijada katta hududlar, qishloq va mahallalarga yirik feodallar, urug' va jamoa boshliqlari, mahalliy hukmdorlar nomi berilgan. Bu holat XX asrning boshlariga qadar davom etgan bo'lsa, hozirda mahallalar, ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, bog'lar va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, tabiiy geografik, geologik, tabiati muhofaza etiladigan va boshqa obyektlarga davlat, jamoat arboblarning, siyosiy arboblarning, vatan himoyachilari, mehnat qahramonlari, fan, madaniyat arboblari va boshqa xizmat ko'rsatgan odamlarning nomini berish orqali antropooykonimlarning ma'lum qatlami yaratilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, o'tmishda kishi atoqli otlarining joy nomiga aylanishi turli xil usullarda voqe bo'lgan. Ularning eng muhim turlari qo'yidagilardir.

1. Kishi ismining o'zi bilangina atalgan oykonimlar. Bunda shaxs ismi biron-bir qo'shimcha elementsiz to'g'ridan-to'g'ri joy nomiga ko'chgan. Masalan, Botirxo'ja, Sobirjon, Boboshbek, Eshimbek, Bekmurod (Uchko'prik tumani), Islom, Sulaymon, Xudoyorxon, Mallaxon, Botirboy, Boboxo'ja (O'zbekiston

tumani), Nabi, Kimsan, Hojibek, SHoberdi (Beshariq tumani), Tangriqul, Rahmatullo, Boybo'ta, Mirboqi, Musobek, Abdusamad, SHopo'lat (Dang'ara tumani), SHoyimbek, SHoto'ra, Qo'qonboy (Furqat tumani), Salim, Ro'ziqu'l, To'raqul, Orifboy (Quva tumani), Nodirmat (Qo'shtepa tumani), Avazboy (Rishton tumani), Mirfozil (Oltiariq tumani), Mirtohir, Davronbek, Bobobek, Mirgulshanboy, Muqimjonboy (Qo'qon shahri) va boshqalar.

2. Kishi ismi va unga qo'shilib qo'llangan titul nomidan iborat oykonimlar: Mulla Zoir (Uchko'prik tumani), Mulla Boshmon, Valixonto'ra, Oftoboyim, Mohlaroyim, Mirzo Xayrullo, Jahongir mirzo, Islom mirzo, Hakimxonto'ra, Mulla Sobir oxund (Qo'qon shahri), Uzoq hoji (Rishton tumani) va shuning singarilar.

3. Kishi ismi va laqabi asosida shakllangan oykonimlar: Karimdevona (O'zbekiston tumani), Murodko'sa (Quva tumani), Hasanqora (Uchko'prik tumani), Xoldevona (Farg'ona tumani), Usta Bozor (Qo'qon shahri) Xoliqpolvon, Usta Sangin (Oltiariq tumani), Usta Abdulla (Rishton tumani) kobilar.

4. SHaxs ismi va unga qo'shilib qo'llangan mansab, amal nomlari bilan ifodalangan oykonimlar: Ashurqozi (Uchko'prik tumani) SHyeralimingboshi, Olimqul dodho, Muhammad Razzoq devonbegi, Xo'ja dodhox, Otabek noib, Hamdam otaliq, To'xlimergan (Qo'qon shahri), Ashurqulqulmergan, Qurbonmergan, Davlatbotir (O'zbekiston tumani), O'rozmergan (Uchko'prik tumani), Alimeragan (Buvayda tumani), Mansuramin (Quva tumani), Qozi Ahror (Rishton tumani) va boshqalar.

5. SHaxs ismi va etnik nom bilan ifodalangan oykonimlar: Qurbonqashqar (Uchko'prik tumani), Qosimavg'on (O'zbekiston tumani) kabilar.

6. Kishi ismi bilan geografik tyerminning birikuvi orqali yasalgan oykonimlar. Bu guruhga mansub bo'lgan antropooykonimlar shaxs ismlariga asosan qishloq, mahalla, qo'rg'on, qo'rg'oncha, ovul, guzar, tepa, dasht, cho'l, bog' singari indikatorlarni qo'shish orqali ifoda qilingan: Hayitqishloq, Sultonqishloq (Furqat tumani), G'aniqishloq, G'anidasht, Dasht Hasan, Dasht Cho'lpon, Komilcho'li (O'zbekiston tumani), Umrzoqmahalla (Rishton tumani),

Rizomahalla, Begimjontepa (Farg'ona tumani), Po'latqo'rg'on (Dang'ara tumani), YUsufqo'rg'oncha, Hasanqo'rg'oncha (Buvayda tumani), Sobirtepa (Beshariq tumani), Hoshimdasht, O'rozbog' (Uchko'prik tumani), Hojibekguzar (Qo'qon shahri), To'xtaovul (O'zbekiston tumani), Iskandarcho'li (Rishton tumani), CHo'l YUnus, CHo'l Ro'ziqul (Bag'dod tumani) va boshqalar.

7. Kishi ismiga "obod" affiksoidini qo'shish orqali yasalgan oykonimlar: G'aniobod, Haydarobod (O'zbekiston tumani), Akbarobod (Quva tumani), Hurramobod (Rishton tumani), Matqulobod, Yo'ldoshobod, Qosimobod (Bag'dod tumani), Azimobod, Nishonobod (Oltiariq tumani), Hamraobod, No'monobod (Furqat tumani), SHyerobod, Rahimobod, Sultonobod, Umrzoqobod (Uchko'prik tumani), Zavqiyobod, Tursunobod (Qo'qon shahri), Solijonobod (Qo'shtepa tumani) kabilar.

8. Kishi ismi bilan chek so'zining birikuvidan tuzilgan oykonimlar. Bu xil oykonimlar Farg'ona vodiysida, xususan viloyatimizda ko'p uchraydi. CHEk deyilganda ko'pincha kimgadir qarashli xususiy yerlar tushunilgan. Bu xil xususiy yerlarda tashkil topgan qishloq, mahallalar keyinchalik chek so'zi bilan atalgan. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi Jumaboycheki, Furqat tumanidagi CHEk SHarif, CHEk Jo'rabek, Rishton tumanidagi CHEk Nasriddin, Bag'dod tumanidagi CHEk Mirzaobod kabi qishloq nomlari shular jumlasidandir.

9. Kishi ismiga "bobo", "ota", "pir" so'zlaridan birining qo'shilishi asosida vujudga kelgan oykonimlar: Karimbobo (Bag'dod tumani), Ummatbobo (Beshariq tumani), Qulbobo (Furqat tumani), Xo'ja Abuturobbobo (Dang'ara tumani), Alinazarota (Qo'qon shahri), Bostonbuva, Poshshopirim (Buvayda tumani), Pir Siddiq (Marg'ilon shahri), Hojiota (Toshloq tumani), SHokirota, Mustafoqulota, Fozilbobo (Rishton tumani) kabilar.

Etnooykonimlar

Oykonimlarning vujudga kelishida aholining etnik tarkibi–ma'lum hududda istiqomat qilgan turli xalq, qabila, urug', qavmlar muhim rol o'ynagan. Aholi maskanlarining ko'pchiligi kishilarning ijtimoiy guruhiga – qaysi qabila va urug', qavmga mansubligiga nisbatan nom ola boshlagan. Etnonimdan yasalgan oykonimlar–etnooykonimlar, odatda, turli qabila, urug' vakillari qo'shni, aralash yashagan hududlarda, etnonimlar farq etuvchi belgi vazifasini bajaradigan joylarda yuzaga kelgan. Bunday nomlar o'sha qabila, urug' vakillarining o'zlari tomonidan berilmagan, balki qo'shni, ikkinchi qabila kishilari tomonidan qo'yilgan. Etnooykonimlarni o'rganish orqali ayrim etnoslarni o'tmishda yashagan joylarini aniqlash mumkin.

Farg'ona viloyati hududidagi aholi maskanlarining salmoqli qismi o'tmishdagi urug', qabila, qavm nomlari – etnonimlar bilan atalgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki boshqa turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham tarixan bir qancha urug'-qabilalardan tarkib topgan. Odatda, 92 o'zbek urug'i bo'lgan, deb hisoblaydilar. Qipchoqlar, qo'ng'irotlar, mang'itlar, kenagaslar, jaloyirlar, quramalar, saroylar, naymanlar, do'rmonlar, qang'lilar, minglar, yuzlar, qotag'onlar, barloslar, qovchinlar eng yirik qabilalardan sanalganlar. Bu urug', qabilalarning har biri bir necha mayda uzvlar, bo'laklar, to'plarga bo'linganlar. Davrlar o'tishi bilan ularning bir qismi unutilib ketgan. Ammo urug' nomlarining aksariyati joy nomlari sifatida saqlanib qolgan. Quyida shunday etnooykonimlarining ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Qipchoq qabilasi o'zbek xalqining eng katta va nufuzli qabilalaridan biridir. Respublikamiz hududida qipchoqlar Farg'ona vodiysida, Zarafshon vohasida, Xorazmda yashaganlar. Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent tomonlarda ham ularning ayrim guruhleri o'troqlashib qolganlar. Professor Karim SHoniyozovning yozishicha, XIX asr oxirlarida Farg'ona vodiysidagi qipchoqlar 70 ming kishini tashkil etganlar. 1917-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra vodiya 84 ta qipchoq

qishloqlari mavjud bo'lgan. Binobarin viloyatimizning Beshariq, Toshloq, Rishton tumanlaridagi Qipchoq deb ataluvchi qishloqlar shu etnonimdan nom olgan. Qo'qon shahri va Toshloq tumanidagi Qipchoqariq gidrooykonimlarining nomlanishi ham bevosita qipchoq etnonimiga aloqadordir. Bu yerda yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, qipchoqlar o'tmishda bir necha urug'larga: qo'g'ay, bug'ach, kumushoy, o'lmas, yashiq, jaydoq, puchug'oy, elaton, bo'g'az, og'im, toz, sirmoq, cherik, ko'kbo'yin, to'rayg'ir, tovuldi, chang'aroqchi, chiyal, qulon, oqbo'yra, boshqirt, tikon, qoratikon, qorabovur, qorabo'yin singarilarga bo'lingan edi. Hozirgi vaqtda mazkur qipchoq urug'larining bir qismi viloyatimizda ular yashagan joylarda oykonimlar sifatida saqlanib qolgan. Dang'ara tumanidagi YAshiq, To'rayg'ir, Qizilmush, Beshariq tumanidagi Qorabo'yin, Tovul, Uchko'prik tumanidagi Puchug'oy, Buvayda tumanidagi Bachqir, Oltiariq tumanidagi Oqbo'yra qishloqlarining nomlari bularga misol bo'la oladi.

Jaloyir–bir necha turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq xalqlarining tarkibiga kirgan yirik qabilalardan birining nomidir. “O'zbek ensiklopediyasi”da qayd etilishicha, o'zbeklar tarkibiga kirgan jaloyirlar o'tmishda Toshkent va Buxoro vohalarida, Nurota tog' etaklarida, Jizzax, Kattaqo'rg'on tomonlarda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiysida yashaganlar. 1920 va 1926 yillardagi aholi ro'yxatida O'zbekistonda yashovchi jaloyirlarning soni 25 ming kishiga yaqin ekanligi aniqlangan. Hozirda o'lkamizda jaloyir qabilasi nomi qishloq nomlari tarzida ko'p uchraydi. Xususan Farg'ona viloyatida bir necha aholi maskani Jalayer nomi bilan yuritiladi. Bu qishloqlar Uchko'prik, Furqat, Bag'dod, Buvayda, Rishton, Quva tumanlari hududida joylashgan.

Nayman 92 bovli o'zbek xalqning eng katta va eng qadimiy qabilalaridan biridir. Professor X.Doniyorovning yozishicha, nayman qabilasiga mansub kishilar respublikamizning deyarli hamma viloyatlarida, xususan Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazmda yashaydilar. Nayman etnonimi o'lkamiz xaritasida joy nomi tarzida tez-tez uchrab turadi. Jumladan, Farg'ona vodiysida 20 dan ortiq qishloq va mahallalar Nayman nomi bilan yuritiladi. Viloyatimizning Buvayda,

Toshloq, Qo'shtepa, Quva, Oltiariq tumanlarida va Quvasoy shahrida Nayman, Dang'ara tumanida esa Naymancha degan aholi maskanlari mavjud.

O'zbek xalqi tarkibiga kirgan nufuzli etnik guruhlardan yana biri turklardir. Tarixchi V.P.Nalivkinning "Qo'qon xonligining qisqacha tarixi" asarida qayd etilishicha, Farg'ona vodiysidagi turklar asosan Marg'ilon bilan Aravon oralig'idagi joylarda tarqalgan bo'lib, yarim ko'chmanchilik holatida hayot kechirganlar, yoz mavsumlarida Oloy tog'ining yaylovlarida mol-qo'y boqib, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. "O'zbek ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, 1924-1925 yillardagi statistik ma'lumotga qaraganda, Farg'ona vodiysida yashagan turklar 24 ming 279 kishidan iborat bo'lgan. Farg'ona viloyatida Katta Turk, Kichik Turk (Dang'ara tumani), Turkravot (Quva tumani), Turk (Buvayda tumani) oykonimlari mana shu turk qabilasi nomi bilan atalgan.

Qadimgi yirik qabilalardan biri – mang'itlardir. Tarixchi N.Norqulovning yozishicha, XVIII asrda Movarounnahrda mang'itlar 12000 uylikni tashkil qilganlar. 1923-1926 yillar ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yashovchi mang'itlarning umumiy soni 130 mingdan oshiqroq bo'lgan. Viloyatimizning Dang'ara, Buvayda tumanlaridagi Mang'it qishloqlari shu etnonim asosida nom olgan. Beshariq tumani Dehqonto'da qishlog'i o'ramidagi mahallalardan biri ham Mang'it deb yuritilgan. SHuningdek, Buvayda tumanida Bo'ri Mang'it, Ko'r Mang'it, Sor Mang'it oykonimlari uchraydiki, bular mang'it qabilasining shaxobchalari nomi bilan atalgandir.

Qangli ham qadimgi va nufuzli qabilalardan biridir. Etnograf olim K.SHoniyozovning zikr etishicha, qanglilarning ko'pchilik qismi XVI-XVIII asrlarda Dashti Qipchoqdan O'zbekistonga kelib o'rnamshib qolganlar. Ular XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona va Zarafshon vohalarida yashaganlar. Bu hududlarda o'z etnik nomlarini saqlab qolgan qanglilar 24 ming kishidan iborat bo'lgan. Qanglilar o'tmishda 42 ta urug'ga bo'lingan. Farg'ona viloyatidagi qanglilar hozirgi Uchko'prik tumanidagi 2 ta qishloqda hamda Bag'dod tumanidagi 3 ta aholi punktida istiqomat qilib, jami 6 ming kishini

tashkil etishgan. O'rganilayotgan hududdagi Qang'il (Uchko'prik tumani) oykonimi bevosita shu etnonimning o'zi bilan atalgan. Qangli tovush o'zgarishi tufayli Qang'il shaklida qo'llanilib ketgan. Irg'oli Qangli, Bolg'ali Qangli, Qo'g'ali Qangli (Bag'dod tumani) oykonimlari esa qangli qabilasi va uning tarmoqlari nomi bilan yuritilgan. Darhaqiqat, irg'oli, bolg'ali, qo'g'ali–qangli qabilasi tarkibiga kiruvchi urug' nomlaridir.

Farg'ona vodiysida 10 dan ortiq aholi maskani yuz etnonimidan nom olgan. Darhaqiqat, yuzlar o'tmishda 92 bo'li o'zbek urug' va qabilalari orasida eng katta qabilalardan hisoblangan. Professor X.Doniyorovning yozishicha, yuz qabilasi avvalo uchta katta bo'lakka bo'lingan: marqa bolasi, qaropchi, rajab bolasi. Marqa o'z navbatida ikkiga ajralgan: uyas solin va xitoy yuzi. Uyas oltiga, solin ham shuncha guruhga, xitoy yuzi esa 12 otaga bo'lingan. YUzning qaropchi, rajab bolasi bo'laklari ham bir necha tarmoqlarga bo'linib ketgan. "O'zbek ensiklopediyasi"da uqtirilishicha, 1920, 1923 va 1970 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatiga ko'ra, hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududlarida yuzlardan qariyb 60 mingga yaqin kishi yashagan. YUzlarning bir qismi Farg'ona vodiysi, jumladan viloyatimiz hududida ham istiqomat qilganlar. YUzlar (Quva, SHahrixon, Oltinko'l tumanlari), YUziya (SHahrixon, Quva tumanlari), YUzmahalla (Quva tumani), Qaropchiyuz (SHahrixon tumani), Marqayuz, Qaropchi, G'anchiyuz (Asaka tumani), CHo'jayuziya (SHahrixon tumani), Ulyuz (Marhamat tumani) oykonimlari yuz etnonimi va uning tarmoqlari, uzvlari nomlari bilan atalgandir. Bundan tashqari, o'tgan asrning boshlarida tuzilgan aholi punktlarining ro'yxatida ko'rsatilishicha, sobiq Qo'qon uezdining Qipchoq volostiga qarashli Saroy qishloq jamoasida (bu hudud xozirda Dang'ara tumaniga qaraydi) YUzlar qishlog'i mavjud bo'lgan. SHuningdek, Qo'qon shahri mahallalaridan biri XX asrning 30-yillarigacha YUzlar deb atalgan. SHahar toponimiya komissiyasi qarori bilan bu tarixiy etnooykonim tiklanib, qayta iste'molga kiritildi.

Viloyatimizning Dang'ara tumanidagi Toptiqsaroy, Kapasaroy, Bag'dod tumanidagi CHeksaroy, O'zbekiston tumanidagi Do'ngsaroy qishloqlarining nomi

saroy etnonimi bilan aloqadordir. Manbalarda bayon qilinishicha, saroy etnik birlashma sifatida XIV-XV asrlar davomida Dashti Qipchoqda shakllangan bo'lib, XVI asrda boshqa o'zbek qabilalari bilan birga hozirgi O'zbekiston hududiga kelib joylashgan. 1924-1926 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatiga ko'ra o'lkamizda yashovchi saroylarning umumiy soni 50 mingdan ortiq bo'lgan. S.Qorayevning yozishicha, saroy qabilasi Buxoro, Karmana, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Samarqand va Jizzax atroflarida, qisman Farg'ona vodiysida yashagan. YUqorida misol qilib keltirilgan etnooykonimlar Farg'ona viloyatining ba'zi joylarida saroy qabilasiga mansub kishilar yashaganligidan dalolat beradi.

Urganji etnooykonimi Farg'ona vodiysida 10 ga yaqin joyda uchraydi. Viloyatimizning Dang'ara, Buvayda, Uchko'prik tumanlarida shu nom bilan yuritiluvchi qishloqlar bor. SHuningdek, Qo'qon shahrida yana Urganjibog' mahallasi mavjud. Mazkur toponimlar urganji etnonimi zahirida yuzaga kelgandir. Etnonim Urganch shahri nomiga tojikcha -i qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan, ma'nosi "urganchlik" demakdir. S.Qorayevning tarixiy manbalarga suyanib yozishiga qaraganda, urganjilar XVIII asr oxirida Urganch shahridan chiqib, boshqa yerlarga o'rnatilgan o'zbeklardir. Darhaqiqat, Farg'ona viloyatidagi urganjilar shu davrlarda bu yerlarga kelib o'rnatilgan bo'lishlari mumkin. XIX asr Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarda ham mazkur hududlarda urganji qavmiga mansub kishilar istiqomat qilganligi va ular o'z urug'larining nomini unutmagankliklari bayon etilgan.

Qotag'on ham o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'lardan hisoblanadi. Manbalarda qayd qilinishicha, qotag'onlar o'tmishda juda keng doirada, xususan Farg'ona vodiysining Namangan bilan Qo'qon o'rtasidagi joylarda, Xo'jand shahri yaqinida yashagan. Davrlar o'tishi bilan qotag'onlarning katta qismi o'z urug'larining nomlarini unutib yuborganlar. SHu etnik nom ular istiqomat qilgan hududlarda oykonimlar shaklida uchraydi. O'zbekiston, Beshariq, Bag'dod tumanlaridagi Qotag'on deb ataluvchi qishloqlar nomini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Kenagas – yirik o'zbek qabilalaridan biri. Farg'ona viloyatida kenagas etnonimi asosida shakllangan aholi maskanlarining mavjudligi qayd etildi. O'zbekiston, Bag'dod tumanlaridagi Kenagas hamda Uchko'prik tumanidagi Katta Kenagas va Kichik Kenagas qishloqlari shunday oykonimlar jumlasidandir.

Viloyatimizning Quva tumanida Qalmoq, Qo'shtepa tumani hududida esa Qalmoqlar qishlog'i bor. Bular qalmoq etnonimiga aloqador holda vujudga kelgan oykonimlardir. Qalmoq qabilasi 92 bovli o'zbek qavmlarining deyarli hamma ro'yxatlarida tilga olib o'tilgan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Farg'ona hududida qalmoqlar XVIII asrning o'rtalaridan yashab kelganlar. Qalmoqlarning vodiya turib qolishi shu hududning joy nomlarida o'z "izi"ni qoldirgan.

Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidagi Qirq, Dang'ara tumanidagi Qirqlar oykonimlarining nomlanishi 92 bovli o'zbek urug'laridan biri – qirq etnonimi bilan bevosita bog'liqdir. O'tgan asrning 30-yillariga qadar Qo'qon shahridagi mahallalardan ikkitasi Qirqlar deb yuritilgan. Mazkur mahallalarda qirq urug'i vakillari yashaganlar. SHu tufayli urug' nomi mahallaga atama bo'lib ko'chgan. Etnonim oykonim sifatida qo'llanila boshlagan.

Bulardan tashqari, Farg'ona viloyatida G'oziyog'liq (Qo'qon shahri), Olchin (Bag'dod tumani), Qorako'rpa (Dang'ara tumani), CHimboy (Beshariq, Quva tumanlari) Ungut (Beshariq tumani), CHuvalanchi (Bag'dod tumani), Qiyali, Qiyot (Beshariq tumani), Telov (Beshariq, O'zbekiston tumanlari), Qushchi (Furqat tumani), Qoraqushchi (Qo'shtepa tumani), Tuyachi (Rishton tumani), Bolg'ali (O'zbekiston, Bag'dod tumanlari), Uymovud, Uyrot (Rishton tumani), Beshechki (Furqat tumani), Qo'chqorchi (Quvasoy shahri), Kelarchi (Oltiariq tumani), Kaltatoy, Turg'oq (Uchko'prik tumani), Toma (Dang'ara tumani), Jov (Buvayda tumani), To'qiboy, Qoraqunos, Qoraqozon, Romadon (Toshloq tumani), Ovchi (O'zbekiston tumani), Beshqovoq (Dang'ara tumani), Qorasoqol (YOzyovon tumani) oykonimlari mavjud bo'lib, bularning asosida ham etnonimlar yotadi.

Farg'ona viloyatida tarqalgan etnooykonimlar orasida boshqa millat, xalq vakillari tarqalganligini, yashaganligini bildiruvchi joy nomlari ham mavjud.

Uchko'prik, Quva, Dang'ara tumanlaridagi Qirg'izqishloq, Buvayda tumanidagi Qirg'izqo'rg'oncha, Qo'shtepa tumanidagi Qirg'izlar, Qirg'izobod, Farg'ona tumanidagi Qirg'izsho'ra, Quva, Uchko'prik tumanlaridagi Qirg'izmahalla oykonimlari shu hududlarda yashagan qirg'iz xalqi nomi bilan atalgan.

O'zbeklar bilan tojiklar qadim zamonlardan beri yonma-yon yashab, o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelganlar. Bunday munosabatlar ikki xalq tarqalgan hududning jug'rofiy nomlari tizimida ham o'z aksini topgan. Tojiklar bilan o'zbeklar aralash yashagan joylarning ko'pchilik qismida tojik etnonimi joy nomi shaklida uchraydi. Bunday oykonimlar jumlasiga Quva, Toshloq, Uchko'prik, Qo'shtepa tumanlaridagi Tojikqishloqlarni hamda bir necha aholi maskanlari tarkibida uchrovchi Tojikmahallalarni misol qilib keltirish mumkin.

Viloyatimizda bir qator aholi maskanlari Arabqishloq (Buvayda tumani), Arabqo'rg'oncha (Uchko'prik tumani), Arabmazor (Toshloq tumani), Yangi Arab, Eski Arab (Oltiariq tumani), Aravon (Dang'ara tumani) nomlari bilan yuritiladi. Bu oykonimlar xalq nomi–arab etnonimi asosida vujudga kelgandir.

O'rganilayotgan hududdagi Qozoqovul, Qozoqqo'rg'on (Beshariq tumani), Avg'onqishloq, O'rtaavg'on (O'zbekiston tumani), Avg'onbog' (Qo'qon shahri), Qoraqalpoq, Qoraqalpoqqo'rg'oncha (Dang'ara tumani), Mazanglik (Qo'qon shahri) qishloq va mahalla, ko'chalarining nomlanishi qozoq, afg'on, qoraqalpoq, mazang etnonimlari bilan aloqadordir.

Xullas, aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug', qabila, millat, xalqqa mansubligini ifodalovchi turar joy nomlari–etnooykonimlar Farg'ona viloyati joy nomlari tizimida alohida guruhni tashkil etadi. Bu xil oykonimlar viloyat hududida qadim zamonlardan boshlab hayot kechirgan turli qabilalar, qavmlar, xalqlarga oid yangi ma'lumotlar beradi. Etnooykonimlarni o'rganish va tahlil etish tilshunoslik, tarix, etnografiya fanlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy turmushni aks ettiruvchi oykonimlar

Oykonimlarining nomlanishida ma'lum hududda yashovchi xalqning iqtisodiy turmush tarzi – shug'ullanuvchi kasb-kori, xo'jalik faoliyati muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bu omil Farg'ona viloyati joy nomlari tizimidagi oykonimlarda ham o'z ifodasini topgan.

Bu xil oykonimlar, ayniqsa, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari mikrotoponimiyasida ko'p uchraydi. CHunonchi, o'tmishda Qo'qon shahrida hunarmandchilik keng miqyosda taraqqiy etgan, rivojlangan. 1897 yili olingan aholi ro'yxati hujjatlarida bayon qilinishicha, shaharning 52 foiz aholisi hunarmandlar hisoblangan. Ular misgarlik, zargarlik, temirchilik, degrezlik, ko'nchilik, to'qimachilik kabi kasb-hunarlar bilan shug'ullanib hayot kechirganlar. Bu jarayon oykonimlarda o'z aksini topgan. Ko'pgina mahalla, guzar, ko'chalar kasb-hunarni ifodalovchi so'zlar bilan yuritilib ketgan. Jiyakchilik, Zargarlik, Taroqchilik, Poyakilik, Sovutsozlik, Misgarlik, Po'stindo'z, CHinnisoz, Egarchilik, Baxmalbof, Ko'rpabof, Degrezlik kabi oykonimlar shular jumlasidandir.

Bulardan Degrezlik mahallasi metallsozlik sohasiga oid so'z bilan ifodangan oykonimlar sirasiga kiradi. Ushbu maskanda yashovchi ko'pchilik aholining ota-bobolari o'tmishda cho'yandan qishloq xo'jaligi va ro'zg'or buyumlari tayyorlash, chunonchi, omoch tishi, ketmon, belkurak, obdasta yasash, shuningdek, qozon quyish ishi bilan shug'ullanib kelganlar. Ular tayyorlagan qozonlarning turlari ko'p bo'lib, doshqozon, kir qozon, holva qozon, to'y qozon, ikkiquloqli qozon, uchquloqli qozon, to'rtquloqli qozon, chaksaki qozon nomlari bilan yuritilgan. Darhaqiqat, Degrezlik oykonimi forsha-tojikcha deg–qozon, rez–rextan (quymoq) fe'lining hozirgi zamon o'zagidan tarkib topgan bo'lib, aynan: “qozon quyuvchi” ma'nosini bildiradi.

SHahardagi Egarchilik deb nomlangan mahalla aholisining ota-bobolari otulov ustiga uriladigan va minib o'tirish uchun moslangan abzal–egar tayyorlash

ishi bilan mashg'ul bo'lganlar. Egar katta-kichikligi, naqsh bezaklari, material tanlanishi bilan bir-biridan farq qilgan. Egar asosan qayrog'ach, yong'oq, o'rik, tut, chinor kabi qattiq daraxtlardan yasalgan. Egarlarning ko'rkam bo'lishi uchun turli xil naqshlar chizilgan. Ayniqsa, egar qoshini bezatishga alohida e'tibor berilgan. Egarchilik hunari avloddan-avlodga o'tgan. SHu bois ushbu mahalla kasb-kor nomi bilan Egarchilik deb atalib ketgan.

Qo'qon shahrida to'quvchilik kasbiga bog'liq holda vujudga kelgan oykonimlar ham birmunchadir. Bularga Adrasbof, Baxmalbof, Parpashabof, Olachabof, Karbosbof, Ko'rpabof, Elakbof singari mahalla, ko'cha nomlarini kiritish mumkin.

Baxmalbof – baxmal to'quvchi, Karbosbof – karbos to'quvchi (karbos-jaydari paxta ipidan to'qilgan dag'al mato, bo'z), Adrasbof – adras to'quvchi (adras-ip aralashtirilib to'qilgan ipak gazlama), Olachabof (olacha–qo'lda yigirilgan paxta ipidan to'qilgan, ingichka yo'lli mato, bo'z), Parpashabof – parpasha to'quvchi (parpasha — dastgohda to'qiladigan yupqa va pishiq mato), Elakbof – elak to'quvchi, Ko'rpabof — ko'rpa to'quvchi ma'nolarini ifoda qiladi.

Bulardan tashqari, Qo'qon shahrida yana Nonvoylikguzar, Ko'nchilik, Dastorbof, Qandakor oykonimlari uchraydiki, bular ham turli xil kasb-hunar, mashg'ulot nomlari bilan atalgandir.

Marg'ilon shahri aholisining turli kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lganligi joy nomlarida o'z izini qoldirgan. SHahardagi Bayturchi, Zargarlik, Yo'rmado'z, Karnaychi, Kosibchilik, Ko'nchilik, Miltiqsoz, Pichoqchi, Pillachi, Toshkesar, SHirmonpaz kabi mahalla va ko'chalar nomlari buning yorqin dalilidir.

Aholi maskanlari nomlari tizimida dahqonchilikka aloqador oykonimlar ham uchraydi. Toshloq tumanidagi Piyoqchilik, So'kchilik (so'k – tozalangan tariq), Oltiariq tumanidagi Bug'doychi, Quva tumanidagi Guruchfurush, Buvayda tumanidagi Tarrachi deb atalgan qishloqlar nomlari shularga misol bo'la oladi.

YUqoridagilardan tashqari, viloyatimizda Yigchi, Ko'mirchi, Uzumchi, CHitgar (Oltiariq tumani), Dukchiyon, Kulolon, Nosgar, CHinnigaron (Rishton

tumani), Sandiqchi, Qamchifurush (Toshloq tumani), Ohakchi, To'g'inchi (Bag'dod tumani), O'roqchi, Somsapaz, Miltiqchi (Uchko'prik tumani), Bordonchi (Qo'shtepa tumani), Tovoqchi (O'zbekiston tumani) kabi kasb-kor nomlari asosida yaratilgan oykonimlar mavjuddir.

Viloyatda qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi mahalliy ishlab chiqarish korxonalari nomi bilan bog'liq bo'lgan Tegirmonboshi, Qo'shtegirmon, To'pjuvoz, Suvjuvoz, YOg'juvoz kabi qishloqlar ham mavjud.

Farg'ona vodiysida, jumladan, viloyatda kishilarning iqtisodiy turmushida savdo-sotiqning ahamiyati qadimdan yuqori bo'lgan. Savdo mazkur hududning gullab yashnashiga, aholi farovonligiga ta'sir o'tkazgan. SHuning uchun "bozor" iborasi toponimlar tarkibida ko'p tarqalgan. Farg'ona viloyatidagi toponimiyasi tizimida Bozor, Bozoryaypan, Galabaqqollik, YOg'bozori, Saribozorcha, Xodabozori, YAngibozor, Bozormahalla singari qishloqlar va mahallalar nomlari uchraydiki, bular savdo-sotiqqa nisbat berib qo'yilgan atamalardir.

SHunday qilib, Farg'ona viloyati joy nomlari tizimida aholi maskanlari nomlari – oykonimlar ma'lum o'rinni ishg'ol etadi. Ular o'ziga xos muhim xususiyatlari bilan toponimlarning boshqa guruhlaridan, chunonchi, gidronimlar, oronimlar, nekronimlar, agroonimlardan farqlanib turadi.

Oykonimlar tarkibida qo'llanuvchi qishloq, ovul, qo'rg'on, qo'rg'oncha, guzar, ko'cha indikatorlari aholi maskanlari nomlarini xarakterlovchi muhim belgilardan hisoblanadi.

Ma'lum hudud tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar oykonimlarda yaxshi saqlanib qoladi. Aholining o'tmishdagi etnik tarkibi – qaysi urug', qabila, qavmga mansubligi, iqtisodiy turmush tarzi – qanday kasb-hunar bilan shug'ullanganligi ko'proq oykonimik nomlarda o'z aksini topadi.

Oykonimlarning muayyan bir qismi soy, ariq, buloq nomlari bilan atalgan. Bu suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lganligidan darak beradi.

Viloyatdagi ayrim yirik-yirik qishloqlar tarixan o'z ichida mahallalar, ko'chalarga bo'lingan. Bu mahalla, ko'chalarning har biri maxsus nom bilan atalgan.

Ba'zi makrooykonimlar ko'pincha ikki ma'noda – tor va keng ma'noda ishlatilgan. Tor ma'noda qo'llanganda o'sha qishloqning o'zi va markazini, keng ma'noda esa shu qishloq atrofidagi barcha aholi maskanlari nomlarini ham ifodalab kelgan.

O'rganilayotgan hududdagi ko'plab oykonimlarning ma'nosi o'z-o'zidan bilinib, anglashilib turadi, ortiqcha etimologik izohni talab qilmaydi. Ayrim oykonimlarning ma'nolarini esa tarixiy-etimologik tahlil qilish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Joyning relyef tuzilishi, sathi bilan bog'liq oykonimlar viloyatda birmuncha uchraydi. Bu xil orooykonimlar tepa, jar nomlari asosida vujudga kelgan.

Oykonimlarning bir guruhi o'zlarida hududning o'simliklar dunyosini ma'lum darajada aks ettirgan. Bu o'simliklar insoniyatning moddiy tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kishilarning hayoti va faoliyatida muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi.

Viloyatda kishi ismlari, laqablari, mansab nomlari asosida shakllangan antropooykonimlar alohida o'ringa ega. Obyekt (joy)ning biron kishiga mansubligi, tegishli ekanligi bunday nomlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Hozirda ko'cha va mahallalar sharqning buyuk allomalari – Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Ismoil Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Ali Qushchi, ona-yurt uchun jonini fido qilgan buyuk sarkardalar – Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur nomlari bilan atalmoqda. Bularni neoantropooykonimlar deyish mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

1. Oykonimlar – joy nomlarining alohida bir turidir. Ular aholi maskanlari nomlarini o'z tarkibiga birlashtiradi. Oykonimlar paydo bo'lishi, rivoji hamda vazifaviy xususiyatlariga ko'ra o'z etnohududiy tarixi va dunyoqarashiga ega bo'lgan turli xalqlarning tarixi, tili taraqqiyoti va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq.
2. Farg'ona viloyati joy nomlari tizimida oykonimlar alohida o'rinni egallaydi. Oykonimlar leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra etnooykonimlar, gidrooykonimlar, fitooykonimlar, orooykonimlar singari turlarga bo'linadi.
3. Etnooykonimlar Farg'ona viloyati joy nomlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning yuzaga kelishi juda qadimiydir. Bu xil oykonimlar o'rganilayotgan hududda istiqomat qilgan va hozirda ham yashab turgan turli etnik guruhlar (urug', qabila, qavmlar, xalqlar) to'g'risida bemaol guvohlik bera oladi. SHu bilan birga etnooykonimlar ma'lum bir etnik guruh yashab kelgan o'rinlar, hududlarni aniqlash va konkretlashtirishga xizmat qiladi.
4. Tadqiq etilayotgan mintaqadagi etnooykonimlarning asosiy qismi o'zbek urug', qabilalari nomlari asosida yuzaga kelgan. Bu qadimdan shu hududda yerli, tub o'zbek elatlari yashab kelganligidan guvohlik bera oladi. Qirg'iz, qoraqalpoq, uyg'ur xalqlariga tegishli etnonimlar bilan atalgan oykonimlarning paydo bo'lishi keyingi davrlar bilan bog'liqdir.
5. Viloyat hududidagi antropooykonimlarning yuzaga kelishi va shakllanishi xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatning qaror topishi bilan izohlanadi. O'tmishda kishi atoqli otining joy nomiga aylanishi turli xil usullarda voqe bo'lgan. Oykonimlar: 1) kishi ismining o'zi bilan; 2) kishi ismi va unga qo'shilib qo'llangan laqab bilan; 3) kishi ismi va etnik nomning birikuvidan hosil qilingan antroponimlar bilan atalgan.
6. Istiqlol yillarida vujudga kelgan antropooykonimlarning ko'pchilik qismi sharqning buyuk allomalari, ona-yurt uchun jonini fido qilgan buyuk sarkardalar,

fan, adabiyot, san'at namoyandalari, o'sha hududning obro'li shaxslari nomlari bilan yuritilgan.

7. Farg'ona viloyati toponimiyasi tizimida gidrooykonimlar muhim o'rinni egallaydi. Bu xil nomlar suv obyektlarining atoqli otlari – gidronimlarning aholi maskanlari nomlari – oykonimlarga ko'chishi natijasida yuzaga kelgan. Gidrooykonimlar, asosan, ariq, soy, ko'l, buloq, quduq, hovuz nomlari bilan yuritilgan.

8. O'rganilayotgan hududdagi oykonimlarning ma'lum bir guruhini o'simlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan joy nomlari tashkil etadi. Bu xil fitooykonimlar o'sha hududdagi o'simliklar dunyosining muhim xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Mevali, mevasiz daraxt nomlari, o't, poliz ekinlari nomlari fitooykonimlarning yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan.

9. Viloyatda joyning relyef tuzilishi, sathi bilan bog'liq bo'lgan orooykonimlar ham alohida o'ringa ega. Orooykonimlar tepa, jar, dara, adir nomlari asosida vujudga kelgan.

10. Oykonimlarning nomlanishida ma'lum hududda yashovchi xalqning iqtisodiy turmush tarzi – shug'ullanuvchi kasb-kori, xo'jalik faoliyati muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bu omil Farg'ona viloyati joy nomlari tizimidagi oykonimlarda ham o'z ifodasini topgan. Kasb-kor nomlari bilan atalgan oykonimlar, ayniqsa, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari mikrotoponimiyasi tizimida ko'p uchraydi.

11. Viloyat hududidagi oykonimlar grammatik tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma oykonimlardan iboratdir. Sodda oykonimlar tub va yasama so'zlar asosida shakllangan.

12. O'rganilayotgan mintaqadagi toponimlarning ko'pchilik qismini qo'shma oykonimlar tashkil etadi. Bular sintaktik-leksik usul vositasida hosil qilingan nomlardir. Qo'shma oykonimlar morfologik materialiga ko'ra ot+ot, sifat+ot, son+ot, numerativ so'z+ot, ot+fe'l, fe'l+ot qolipidagi leksemalardan tashkil topgan.

13. Qo'shma oykonimlar tarkibida joy nomlarini yasash xususiyatiga ega bo'lgan indikatorlar faol qatnashadi. Oykonimik, gidronimik, oronimik indikatorlar yordamida hosil qilingan qo'shma oykonimlar o'rganilayotgan hududda ko'p uchraydi.

14. Farg'ona viloyati oykonimlarining yuzaga kelishi va rivoji ushbu hududda yashovchi aholining uzoq o'tmishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, nafaqat tilshunoslik sohasi uchun, balki tarix, etnografiya, geografiya, biologiya, arxeologiya fanlari uchun ham qimmatli materiallar bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, 2011.
4. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi? –Toshkent, 1972.
5. Aslonov A. SHofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili. NDA. - Toshkent, 2005.
6. Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII в.в. (письменные памятники). –Ташкент: Фан, 1985.
7. Ahmedov B. O'zbek ulusi. –Toshkent, 1992.
8. Begmatov E. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
9. Bo'riyev S. Urgut tumani mikrotoponimlarining leksik-semantik tahlili. NDA. - Toshkent, 2010.
10. Губаева С. Этнонимы в топонимии Ферганской долины. АКД. – Москва, 1973.
11. Губаева С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX вв. –Ташкент: Фан, 1991.
12. Дониdze Г.И. Глагольные топонимы в тюркских языках. Топонимика Востока. –Москва, 1964.
13. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. –Toshkent: Fan, 1968.
14. Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма. АКД. - Ташкент, 1970.
15. Do'simov Z. Toponimik indikatorlar // O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 5-son, 71-74-betlar.
16. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985.

- 17.Do'simov Z., Tillayeva M. Toponimika asoslari. –Toshkent: Fan, 2002.
- 18.Закиров А. Топонимия Джизакской области Узбекской ССР. АКД., М., 1991.
- 19.Ibrat. Farg'ona tarixi. –Toshkent, 1991.
- 20.Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. - Toshkent, 1988.
- 21.Nafasov T. Qishlog'ingiz nega shunday atalgan? - Toshkent, 1989.
- 22.Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов. АКД. - Ташкент, 1978.
- 23.Oxunov N. Antropotoponimika nima? –Toshkent: O'zbekiston, 1984.
- 24.Oxunov N. Joylar va nomlar. –Toshkent: O'zbekiston, 1986.
- 25.Oxunov N. Til va joy nomlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1988.
- 26.Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1989.
- 27.Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. – Toshkent: O'zbekiston, 1994.
- 28.Oxunov N. Joy nomlarining grammatik tuzilishi va yasalishi. - Qo'qon, 2004.
- 29.Oxunov N. Muqaddas qadamjoylar. - Qo'qon, 2005.
- 30.Oxunov N. O'zbekiston toponimiyasi. - Qo'qon, 2005.
- 31.Oxunov N. Toponimik indikatorlar tasnifi // Ta'lim va texnologiya. – Toshkent, 2009. –B.81-86.
- 32.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992.

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi III "S" guruh talabasi

Begmatova Sohibaning

"Farg'ona viloyati oykonimlarining lingvistik tahlili"

mavzusidagi kurs ishiga

T A Q R I Z

Joy nomlari – toponimlar paydo bo'lishi, lisoniy mohiyati va vazifalariga ko'ra xalq ma'naviyati, mafkurasi, madaniyati bilan zich bog'langan lug'aviy qatlamdir. Toponimlarda o'zbek xalqining o'tmish tarixi, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari, etnografik, diniy tasavvurlari o'z ifodasini topadi. Mana shu ma'noda Begmatova Sohibaning Farg'ona viloyati oykonimlarining lingvistik tahliliga bag'ishlangan ushbu kurs ishi nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur kurs ishi 4ta rejadan tashkil topgan. Ishning so'z boshida mavzuning muhimligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, qo'llanilgan metodlar, ishning obyekti va manbalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tuzilishi to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kurs ishining rejalarida Farg'ona viloyati oykonimlarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Oykonimlar nomlanish tamoyillariga ko'ra quyidagi guruhlarga: 1) gidrooykonimlar; 2) orooykonimlar; 3) fitooykonimlar; 4) antropooykonimlar, 5) etnooykonimlar; 6) iqtisodiy turmushni aks ettiruvchi oykonimlarga tasnif etib o'rganilgan. Bularda suv obyektlari nomlari, relyefni ifodalovchi so'alr, o'simliklar dunyosini aks ettiruvchi leksemalar, kishi atoqli otlari, urug', qabila, qavm, xalq nomlari, kasb-hunarni ifodalovchi so'zlar asosida vujudga kelgan oykonimlar to'plangan ashyoviy dalillar asosida har jihatdan keng va atroflicha tadqiq qilingan. Talaba ishni yozishda adabiyotlardan unumli foydalangan.

Xullas, Farg'ona viloyati oykonimlarining lisoniy xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ushbu kurs ishi mavzusining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Unda ilk bor viloyat hududida mavjud bo'lgan oykonimik materiallar atroflicha

to'plangan hamda tartibga solingan, aholi maskanlari nomlari leksik-semantik nuqtai nazardan tasnif qilinib, guruhlarga ajratilgan, oykonimlarning Grammatik tuzilishi va yasalishi aniqlangan.

Kurs ishining faktik materiallari toponimlarning izohli, etimologik, imlo lug'atlarini tuzishda juda qo'l keladi. Mazkur tadqiqot nafaqat tilshunoslik uchun, balki tarix, etnografiya, arxeologiya, geografiya, biologiya fanlari uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. SHularni hisobga olgan holda ishni bimalol himoyaga tavsiya etish mumkin.

D.Nizomiddinova

BTM kafedrası o'qituvchisi